15«11»2022 yil.

**2516-7-107-OB/2022-son**

**OLDI-SOTDI SHARTNOMASI № 48**

(Maxșus kiyim kechak sotish bo'yicha)

Samarqand shahri

14.11.2022 yil

Bundan buyon "BUYuRTMAChI" deb ataluvchi Samarqand shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi Yu.Yu.Bobonazarov bir tomondan va bundan buyon "ETKAZIB BERUVChI" deb ataluvchi Makro Group savdo MCHJ nomidan nizom asosida faoliyat olib boruvchi U.Xujanazarov boshqa tomondan, ushbu kontraktni quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

**1 KONTRAKT PREDMETI**

1.1. Ushbu kontraktga asosan Buyurtmachi tovarni qabul qiladi va to'laydi, Yetkazib beruvchi esa quyidagi shartlarga muvofiq yetkazib beradi:

| № | Tovarlarning nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Birlik uchun kontrakt narxi | Kontraktning umumiy qiymati |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Maxsus kiyim kechak (poyafzali bilan) xaridi | dona | 350 | 450 000 | 157 500 000 |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |
| 4 | | | | | |
| 5 | | | | | |
| 6 | | | | | |
| | **Jami:** | | | | 157 500 000 |

1.2. Kontraktning umumiy summasi QQS bilan 157 500 000 (Bir yuz ellik yetti million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi

**2. YeTKAZIB BERISh VA HISOB-KITOBLAR ShARTLARI**

**2.1.** "Buyurtmachi" mazkur kontraktni g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, kontrakt umumiy summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 5 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

**2.2.** "Etkazib beruvchi" avans mablag'lari Yetkazib beruvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 10 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

**2.3. "Etkazib beruvchi" amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.**

**2.4.** "Buyurtmachi" tovarlarni qabul qilishda "Etkazib beruvchi" ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini savdolarni o'tkazish to'g'risidagi e'londa (buyurtmanomada) ko'zda tutilgan boshqa talablarga muvofiqligini tekshirishi shart.

**2.5. Agar mazkur kontrakt bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Yetkazib beruvchi xisobidan amalga oshiriladi.**

2.6. Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

2.7. Yetkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

2.8. Mazkur kontrakda ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur kontraktga muvofiq amalga oshiriladi.

**3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYaTLARI**

3.1. Buyurtmachining huquqlari:

Yetkazib beruvchidan Kontraktni bajarish uchun zarur bo'lgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Yetkazib beruvchidan joylashtirilgan buyurtmanomaga ko'ra mazkur kontraktga muvofiq, tegishli sifat, assortiment bo'yicha tovarlarni yetkazib berishni talab qilish;

Sifatsiz tovar yetkazib berilganda o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish:

- tegishli sifatdagi shunga o'xshash tovar bilan almashtirib berish;
- kamchiliklarni beg'araz bartarf etish;
- Yetkazib beruvchidan mazkur kontrakt shartlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishni talab qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

- mazkur kontraktga muvofiq o'zining joylashtirgan buyurtmanomasi bo'yicha yetkazib berilgan tovarlarni qabul qilish;
- tovarlarning qiymatini mazkur kontraktda belgilangan narxda va muddatda to'lash.

3.3. Yetkazib beruvchi quyidagi xuquqlarga ega:

3.4. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:

- Buyurtmachiga tovarlarni mazkur kontraktga muvofiq belgilangan muddatda, miqdorda va sifatda yetkazib berish;
- agar tovarlarni yetkazib berish jarayonida Yetkazib beruvchi kontrakt shartlari va me'yorlardan va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan chetga chiqishga yo'q qo'ygan hollarda Buyurtmachining talabi bo'yicha 5- kun muddat ichida barcha aniqlangan kamchiliklarni beg'araz bartaraf etish.

3.5. Mazkur kontrakt belgilangan tartibda mazkur kontrakt shartlari va talablari va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq ijro etilishi shart.

3.6. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

## 4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Buyurtmachi:

- savdolarni o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;
- savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan kontrakt tuzish yoki savdolar g'olibi bo'lgan yetkazib beruvchi bilan kontrakt tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);
- tomonlar o'rtasidagi kontrakt majburiyatlarini bajarish tugallangandan keyin besh yil mobaynida savdolar predmeti bo'yicha e'lonlar va texnik hujjatlarning asl nusxalari saqlanishi uchun javob beradi.

4.2. Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi aktseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Yetkazib beruvchi:

- savdolarda qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi;
- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalari shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;
- savdolar shartlarining boshqa buzilishlari;
- tuzilgan kontrakt shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.5. Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib,

yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan aktseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

4.7. Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

## 5. NIZOLARNI HAL ETISh TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita iqtisodiy sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iktisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 6. FORS-MAJOR

**6.1.** Fors-major natijasida majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari kelib chiqsa va bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 fevralidagi 63-sonli "Engib bo'lmas kuch (fors-major) holatlarining mavjudligini tasdiqlash mexanizmini to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan shartlarda tomonlar ushbu kontrakt bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarilishidan ozod etiladi.

## 7. BOShQA ShARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

## 8. KONTRAKTNING AMAL QILISh MUDDATI

**8**.1. Mazkur kontrakt g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrgacha amal qiladi.

**8**.2. Kontraktning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda kontrakt bajarilgan hisoblanadi.

**8**.3. Kontraktning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 9. KORRUPSIYaGA QARShI TALABLAR.

9.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi amaldagi qonunlarga rioya etilishini taъminlaydi, yani ular, ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik

qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

9.2. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

9.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruptsion xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruptsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9.4. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlari- ni buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlar qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

## 10. YuRIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

| | |
|---|---|
| Makro Group savdo MCHJ | Obodonlashtirish boshqarmasi |
| Hisob-kitob raqami<br>2020 8000 6009 7059 4001<br>Valyuta hisob raqami<br>________________________ | Hisob-kitob raqami<br>100022860184017065100110034<br>Valyuta hisob raqami<br>________________________ |
| Ipoteka bank Ko`ksaroy fil,<br>bank kodi 00262<br>STIR_305499783<br>telefon<br>Boshliq U.Xujanazarov<br>*(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)* | "Markaziy bank" Toshkent shahar bosh boshqarmasi XKKM bo'limida, bank kodi<br>_00014<br>STIR 204858743,<br>telefon__98 888 83 92__<br>Boshliq__Yu.Bobonazarov<br>*(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)* |

MAKRO GROUP SAVDO

Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

| | |
|---|---|
| Imzolovchi F.I.SH. | YUNUS BOBONAZAROV YUSUFOVICH |
| Imzolangan sana | 15.11.2022 10:22 |
| Hujjat kodi | **VO3380651700** |
| Hulosa kodi | **VN1382387380** |

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

FAMILIYASI
XUJANAZAROV

ISMI
ULMAS

JINSI
ERKAK

OTASINING ISMI
NARZILLOYEVICH

TUG'ILGAN SANASI
21 09 1986

TUG'ILGAN JOYI
SAMARQAND TUMANI

MILLATI
O'ZBEK

KIM TOMONIDAN BERILGAN
SAMARQAND VILOYATI TAYLOQ
TUMANI IIB

SHAXSIY IMZO / HOLDER'S SIGNATURE

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI / REPUBLIC OF UZBEKISTAN

PASPORT PASSPORT

| TURI / TYPE | DAVLAT KODI / COUNTRY CODE | PASPORT RAQAMI / PASSPORT No. |
| --- | --- | --- |
| P | UZB | AB8734091 |



FAMILIYASI / SURNAME
KHUJANAZAROV

ISMI / GIVEN NAMES
ULMAS

FUQAROLIGI / NATIONALITY
UZBEKISTAN

TUG'ILGAN SANASI / DATE OF BIRTH
21 09 1986

JINSI / SEX
M

TUG'ILGAN JOYI / PLACE OF BIRTH
SAMARKAND REGION

BERILGAN SANASI / DATE OF ISSUE
27 01 2018

PERSONALLASHTIRISH ORGANI / AUTHORITY
STATE PERSONALIZATION CENTRE

AMAL QILISH MUDDATI / DATE OF EXPIRY
26 01 2028

UZB

P<UZBKHUJANAZAROV<<ULMAS<<<<<<<<<<<<<<<<<<<<<<

AB87340911UZB8609214M2801267321098640500328

YASHASH JOYI / ADDRESS

Jumabozor
12 07 2004

MA'LUMOTLAR / OBSERVATIONS

876232

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"MAKRO GROUP SAVDO" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"MAKRO GROUP SAVDO" MChJ

(yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

19.04.2018 502180 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR) 305499783

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Samarqand viloyati, Tayloq tumani, Jumabozor, JUMABOZOR QISHLOG'I,

Guvohnoma: Samarqand viloyati, Tayloq tumani DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)

MAKRO GROUP SAVDO

**“ТАСДИҚЛАЙМАН”**
**“Ободонлаштириш бошкармаси**
**булим бошлиги, комиссия раиси**

**______________ Т.Чутбоев**

Самарканд шахар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида Бошкарма ишчи ходимларига махсус кийим кечак (пойафзали билан) хариди буйича ташкилотлар ўртасида танлов ўтказиш бўйича комиссия йиғилиши

## БАЁНИ

Самарканд шаҳри **10 ноябр 2022 йил**

Раислик қилувчи Т.Чутбоев

Иштирок этган комиссия аъзолари:

| | |
|---|---|
| К.Сатторов | Комиссия аъзоси, бош агроном |
| О.Умиров | Комиссия аъзоси, мутахассис |
| Ж.Бабаев | Комиссия аъзоси, булим бошлиги |
| Т.Лаханов | Комиссия аъзоси, Омбор мудири |
| Т.Эгамурадов | Котиб, бош хисобчи |

## КУН ТАРТИБИ:

Самарканд шахар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида Бошкарма ишчи ходимларига махсус кийим кечак (пойафзали билан) хариди.

(Т.Чутбоев, Ж.Бабаев, Ш.Сохибназаров, Т.Эгамурадов)

Бошкарма томонидан 2022 йил 09 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Товар ва хом-ашё биржасининг электрон порталига Самарканд шахар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида Бошкарма ишчи ходимларига махсус кийим кечак (пойафзали билан) хариди буйича № 172986-лот рақами билан эълон жойлаштирилди. Мазкур лот бўйича 2022 йил 09 ноябрдаги энг яхши таклифларни танлаш савдосини ўтказиш бўйича давлат харидлари комиссиясининг электрон портали орқали шаклланган Самарканд шахар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси биносида бошкарма томонидан Бошкарма ишчи ходимларига махсус кийим кечак (пойафзали билан) хариди буйича баённомасига асосан эълон якунига кўра Комиссия аъзолари томонидан

ООО MAKRO GROUP SAVDO корхонаси ғолиб деб топилганлигини инобатга олиб:

**ҚАРОР ҚИЛИНДИ:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684-сонли Қонунининг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига мухокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш куни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома бўйича хеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Бошкарма бош бухгалтери Т.Эгамурадовга:

Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 09 ноябрдаги электрон баённомасига асосан ғолиб ООО MAKRO GROUP SAVDO корхонаси билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.

3. Бошкарма техник назоратчиси Самарканд шахар ҳокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси Бошкарма ишчи ходимларига махсус кийим кечак (пойафзали билан) харидининг сифат даражаси назорат қилинсин.

**Комиссия аъзолари**

| | |
|---|---|
| Комиссия аъзоси, бош агроном | К.Сатторов |
| Комиссия аъзоси, булим бошлиги | Ж.Бабаев |
| Комиссия аъзоси, мутахассиси | О.Умиров |
| Комиссия аъзоси, омбор мудири | Т.Лаханов |
| Котиб, бош хисобчи | Т.Эгамурадов |

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

VN1382387380

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **maxsus kiyim uchun oldi sodti shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Samarqand shaxri Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 14.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Samarqand shahar yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**N.J.NURNAZAROVA**

14.11.2022